




МУҲАДДИМ ҲАМ ЎЗДИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

илимий-методикалык журнал № 4-1



Нөкис - 2020



«Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў» илимий-методикалық журналына жазылың!

2020-жыл ушын
«Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў»
журналына жазылыў баҳасы төмендегиси:

Күндөс: 2032

Жеңе пужара ушын бир жылга 110 000 сум,
алтын айга - 55 000 сум

Күндөс: 2033

Жеңе пужара ушын бир жылга 120 000 сум,
алтын айга - 60 000 сум

КК филиалы

р/с 2021

И.А.А. «МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ» ж. Самарканд
Жеңе пужара
Жеңе пужара

МУГАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 4-1 2020 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:
Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Аманжол АЯПОВ
Өсербай ӘЛЕУОВ
Байрамбай ӨТЕМУРАТОВ
Қадирбай БЕКТУРДИЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Норбек ТАЙЛАКОВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дустназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

Шөлкемлестіріушілер:
Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириу
Министрлиги, ӨЗПІИИ
Қарақалпақстан филиалы

Өзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз хәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гууалық
берилген.

Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшесі №54
Тел.: 224-23-00
e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

Журналға келген мақалаларға жууап қайтарылмайды, журналда әсэрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим хәм үзликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилиуи шэрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN ирифтинде электрон версиясы менен бирге кабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлыуматларға автор жууапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ҲАМ ӘДБИЯТ

Холназаров УЭ. Тоғай Мурод бадий тили ҳақида	4
--	---

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Joldasbaev P.M. Akademik Jumanazar Bazarbaev - pedagogika ilimi tarawinin` jetekshisi sipatinda	7
Eshmamatov I.A., Yusupov X.T., Abdiraxmonov A. Ta`lim modeli - milliy taraqqiyotning ma`naviy poydevori	10
Куттибекова Г.Т. Умумтаълим мактабида арtpедагогик технологияларни куллаш имкониятлари	15
Бердибаев М., Отениязов Е. Укувчиларининг касбий компетенцияларни шакллантириш	20
Муллаев Б.М. Укувчиларда интеллектуал фаолиятини ривожлантиришга хизмат киладиган укув вазиятларини ташкил этиш	22
Юлдашев И. Оилада болаларни педагогик жиҳатдан туғри йуналтиришда ижтимоий муҳит омили	28
Норбутаев Х.Б. Биологияни табиий фанлар билан синхрон боғлаб уқитиш технологияси	32
Анкабаев Р.Т. Тугарак машғулотларида укувчиларнинг бадий ижодий компетенцияларини ривожлантириш методикаси	37
Иманов Б.Б. Дарслар таҳлили таълим сифатини ошириш омили	40
Шодмонова Ш.С. Развитие творческих способностей студентов в процессе профессиональной подготовки	44
Джамалов Н. Основные аспекты и приоритетные направления реформирования высшего образования Республики Узбекистан	47

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУҶҲИЙЛИК ТҲЙКАРЛАРИ, ТАРИҲ, ФИЛОСОФИЯ

Қарлыбаев М., Тажетова С. Қарақалпақстан жазба мийрасы ҳаққында	51
Норлиев Р. Мамлакатимизда демократик ислохотларни амалга оширишда фуқаролик жамиятини ривожлантириш маркази роли	55
Жуманова Х. Ислом ҳуқуқининг асосий манбалари ва улардан таълим жараёнида фойдаланиш масалалари	58
Муҳаммадиева М.М. Шарк маънавий меросида масъулият муаммосининг ёритилиши	61

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Jumaniyozov X.S. Axborot tahdidlarining globallashuvi sharoitida yoshlarda ozod shaxs ko`nikmalrini tarbiyalash	64
Джораев М., Хожаназарова Р.М. Оптиканинг методологик масалаларини баён қилиш методикаси	68
Рузимуродов И.Н. Математик функцияларни урганишда дастурлаш тилларидан фойдаланиш	73
Бердиев Б.Р. Математика уқитиш методикасидан талабаларнинг мустикал ишларини ташкил этиш йуллари	76

БАСЛАУЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Холматова С. Ривожланган мамлакатларда бошлангич таълим тизими	79
Йулдошев Ф.Б. Бошлангич синф укувчиларининг билим узлаштиришини диагностика қилиш	84
Умиров А.А. Булажак бошлангич синф уқитувчиларини АКТдан фойдаланишга ургатишнинг имкониятлари	88
Мухаммадиева Х.К. Мактабгача таълимни ислоҳ қилишнинг асосий омилларидан бири комил инсон тарбиясида «шаҳс манфаатлари ва таълим устуворлиги» гоёси	90
Норқобилова Р.Д. Бошлангич синф укувчиларида экологик тушунчаларни креатив ёндашув асосида шакллантириш	94
Норбутаев Х.Б., Донаева Ш.А. Бошлангич синф укувчиларида экологик хавфсизлик маданиятини шакллантириш омиллари	99
Очилов А.Э. Булажак бошлангич синф уқитувчиларида мантикий тафаккурни шакллантириш ва ривожлантиришнинг илмий-назарий аспекти	104
Йулдошев Ж.Т. Масалалар бажариш орқали дивергент тафаккурни шакллантириш усуллари	108
Shaxmurodova D.A. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlashga innovatsion yondashuv	111
Султанова Н.Н. Бошлангич таълимда инглиз тили фанини ўқитишнинг ёрдамчи воситалардан фойдаланиш муаммолари	117
Нийёзулов М. Бошлангич синфлар уқитувчиларида АКТдан фойдаланиш фаолиятини ташкил этишнинг узига ҳослиги	121
Исаева У.Н. Проблемы обучение иностранному языку в начальных классах	124
Нигманов Б.Б. Проблемы повышения физической активности учащихся начальной школы	127

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Салиев Х.Х. Спорт машгулотларининг талаба ёшлар соғлигини мустаҳкамлашдаги роли	131
Қушмонов А., Мамадалиев Қ. Жисмоний тарбиянинг организмга соғломлаштирувчи таъсири	134
Ашуров А., Мадаминов Х., Авазбадалов Ш. Соғлиқни мустаҳкамлашда жисмоний тарбия ва спорт машгулотларининг роли	138
Орзиев А. Талабалар жисмоний тарбия жараёнларининг мазмуни	141
Xabibullaev S.X., Xudoyberganov J.S. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashqlar	143
Очилов Э.О. Кураш спорти - юксак маънавий тарбия асоси	147
Худойберганов Ж.С., Хабибуллаев С. Х. Спортда тарбия ва унинг хусусиятларини тарбиялаш йуллари (спорт уйинлари мисолида)	150
Султонов А.И. Курашимиз тарихи ва бугунги равнақи	153
Тойлибаев С.М. Вопросы формирования профессиональной деятельности специалистов физического воспитания средствами основной гимнастики	156

4. Muratbaeva A. J. Bazarbaev ha'm Qaraqalpaqstanda etika mektebinin` qa`liplesiwi. / U`lgili ustaz, pidayi alim. A`jiniyaz atindag`ı NMPİ kishi tipografiyası. 2003 jıl. 29-33-betler
5. R. Raximov, R. Rajapov. «Xalq swzi» (1993-j., 27-mart, №59)
6. Bazarbaev J., Muxabbat bostanı. No`kis, «Qaraqalpaqstan» 2012., 240 bet.

РЕЗЮМЕ

Bu ilmiy maqolada akademik Jumanazar Bazarbaevning yurtimizda olib borilgan daslabki pedagogik tadqiqotlari va usha davr yetakshi olimlari bilan olib borilgan ilmiy tadqiqotlari haqqida va yaratilgan darsliklari, ilmiy izlanishlari haqida keng malumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

Эта научная статья содержит обширную информацию о начальных педагогических исследованиях академика Джуманазара Базарбаева в нашей стране и научных исследованиях, проведенных ведущими учеными того времени, а также учебниках и научных исследованиях.

SUMMARY

This scientific article contains extensive information about the initial pedagogical research of academician Dzhumanazar Bazarbaev in our country and scientific research conducted by leading scientists of that time, as well as textbooks and scientific research.

TA'LIM MODELI - MILLIY TARAQQIYOTNING MA'NAVIY POYDEVORI

Eshmatov I.A., Yusupov X.T., Abdiraxmonov A.

Mustaqil tadqiqotchilar

Таянч сузлар: innovatsiya, Internet-resurs, integratsiya, interaktiv, kompetensiya, kompetensiyabiy, kasbiy vakolat, ijodkorlik, masofaviy o`qitish, motivatsiya.

Ключевые слова: инновация, интернет-ресурс, интеграция, интерактив, компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, креативность, дистанционное обучение, мотивация.

Key words: innovation, internet resource, integration, interactive, competence, component, professional competence, creativity, distance learning, motivation.

Har bir mamlakat milliy taraqqiyotini ta'minlash maqsadida jahon va ichki mehnat bozorining talablari, ishlab chiqariladigan mahsulot va ularga bo'lgan talab-ehtiyojlar, ilmiy-texnik, demografik, intellektual kabi resurslarni inobatga olgan holda ta'lim modelini ishlab chiqadi. Shu bois, Islom Karimov "Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo'liga qadam qo'yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o'tishni ta'minlar ekannimiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg'or texnologiyalarni egallagan insonlarga o'z oldimizga qo'yg'an strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o'zimizga yaxshi tasavvur etib kelmokdamiz" - deya ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq milliy ta'lim modelini yaratishga alohida e'tibor qaratilib, uning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. Ta'lim modelini tadbqiq etish davomida ta'lim tizimi shakllantirildi. Bundan ko'zlangan maqsad esa, ta'lim jarayonlarini amalga oshirishini rejalashtirish va maqsadli boshqarish uchun resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat. Bu o'z navbatida resurslar motivatsiyaiy, intellektual, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-psixologik, raqobatli, demografik, ijtimoiy-ekologik, faoliyatli, innovatsion, strategik, pedagog kadrlarga oid, tashkiliy, boshqaruv, ilmiy, uslubiy kabilardan tarkib topgan bo'lishi mumkin.

Nazariy jihatdan har qanday model dinamik mazmun kasb etishini hisobga olsak, rivojlanish strategiyasi galdagi bosqichga o'tganligi sababli model takomillashtirilishiga tabiiy holat sifatida qarash o'rinlidir. Negaki, tezkor va taktik vazifalar majmuasining amalga oshirilishi natijasida, strategik, ya'ni istiqbolda bajariladigan galdagi vazifalarni amalga oshirish uchun zamin yaratiladi. Shu sababli bo'lsa kerak, fanda turli belgilari asosida model: konseptual model, ideal model, joriy model va empirik model kabi turlarga ajratiladi. Har bir model o'z maqsadi, vazifa va tuzilishiga ega ekanligi bilan bir-biridan ajralib turadi.

Ta'lim modeli haqida munosabat bildirishda uni tarixiy, falsafiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik, madaniy va pedagogik kabi tarkiblari mavjudligini ko'rsatib o'tish lozim. Negaki, ta'lim modelini maqsad va vazifalarini shakllantirishda bu tarkiblar ma'naviy yaratuvchanlik-madaniy rivojlantiruvchi, meyorlarni shakllantiruvchi-qadriyatlarni tarkib toptiruvchi, erishilgan natijani baholovchi va uning galdagi rivojlanish holatini prognozini amalga oshiruvchi kabi funksiyalarni bajaradi. Bu o'z navbatida, pedagogik jarayonni boshqarishda, quyidagi masalalarga e'tibor qaratib yondashishni taqozo etadi:

- ▶ ta'lim-tarbiyaning konseptual masalalarini rejayiy boshqarish masalasiga;
- ▶ ta'lim-tarbiya jarayonini texnik va texnologik ta'minoti bilan bog'liq masalalarga;
- ▶ pedagogik faoliyatni tashkil etishni boshqarish masalasiga;
- ▶ pedagogik faoliyat jarayonini takomillashtirishni boshqarish masalasiga.

Biron bir ta'lim modeliga doir munosabat bildirishda makon va zamon, sabab va oqibat aloqadorligini inobatga olib, o'sha mintqa mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillarning ta'sir darajasi va yuzaga kelgan shart-sharoitga e'tibor qaratish lozim.

Har bir tarixiy davr turli jihatlari bilan ajralib turadi. Bunda asosiy ko'rsatkich sifatida ilmfan sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkir va allomalarning ijod mahsulining namunalari, ishlab chiqarishda qo'lga kiritilgan moddiy boyliklar kabi omillar tasnif uchun mezon sifatida qabul qilinishi mumkin. Shunday ekan, har qanday milliy ta'lim modelining negizini an'anaviy pedagogik tamoyil va meyorlar tashkil etadi. Uning takomillashtiruvchi elementlari, ya'ni joriy etilgan yoki kiritilgan tarkiblar vazifadorligi jihatidan an'anaviy pedagogik tamoyil va meyorlarni amal qilishini ta'minlashi lozim. Shu sababli, ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy, madaniy, texnik va boshqa omillarning ta'sir darajasini aniqlab (diagnostikasini amalga oshirib), faollik darajasi past bo'lganlarini (yashovchanlik xususiyatini yo'qotgan xossasini (elementini)) faollashtirish (jonlashtirish) lozim. Chunki milliy xarakter, maishiy hayot tarzi, milliy tafakkur tarzi, milliy ehtiyoj, milliy xotira va boshqa bir qator dinamik mazmunga ega bo'lgan ma'naviy xossalar takomillashuvni (zamonaviylashuvni) taqozo etadi. Masalan, faqatgina buyuk allomalimizni ilmfan-sohalarida qo'lga kiritgan yutuqlari yoki milliy qahramonlarimizni jasorati bilan g'ururlanishini o'zi kifoya emas. Tarixiy vaqt nuqtai nazar asosida bugun, ya'ni XXI asrning birinchi yarmida milliy taraqqiyotni ta'minlashda, osuda hayot tarzini himoya etish yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan zamona qahramonini ideal obrazini yaratib, joriy obrazlarni unga yetkazish uchun ta'lim-tarbiyadan vosita sifatida foydalanish lozim.

Ta'lim-tarbiya ijtimoiy institut sifatida ana shu takomillashuvni ta'minlash jarayonida ma'naviy asos sifatida ishtirok etadi. Buning uchun ta'lim-tarbiya sohasida milliy manfaatlarining chegarasini ajratib, joriy va idel holat orasidagi tafovutni belgilash talab etiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya masalasiga strukturaviy yondashib, son ko'rsatkichlarini sharhiga emas, balki funksional yondashib, ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan strategik vazifalarni bajarilishiga-natijaga erishilganligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Agarda, ta'lim-tarbiya sohasida mavjud turli shakldagi xavf-xatarlarni mavjudligini inobatga olsak, bu masalaga tizimli yondashish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogikada tizimli yondashuv boshqa yondashuvlarga qaraganda samarali ekanligi bilan ajralib turib, faoliyat davomida qo'llanilmagan resurslardan maqsadli foydalanish uchun ahamiyat hisoblanadi. Bunda pedagogikada tizimli yondashuvni pedagogik fanlarning tizimi bilan almashtirmaslik shart. Chunki tadqiqot (tahlil) predmeti sifatida pedagogik fanlarning har biri tizim sifatida sharhlanishi mumkin.

Ta'lim modelida milliy manfaat, milliy tarix, milliy hayot tarzi, milliy g'urur va iftixor, milliy orzu, milliy intilishlar, milliy ma'rifiy qadriyat va an'analar kabi tarkiblar o'z aksini topgan bo'lib, ta'lim jarayonini boshqarish yaxlit tarzda belgilangan bo'ladi. Ta'lim modelini jamiyat hayotini ta'minlashda tutgan o'rnini belgilash uchun, uni turlari va maqsadi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish lozim. Nazariy jihatdan Yangi Yevropaning ta'lim modeli va Osiyo ta'lim modeli kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Har bir model o'z tarkiblariga ega bo'lib, bunda hududiy qamrov asosiy belgi hisoblanadi. Ularning tarkibiy qismlarini ko'rib chiqamiz:

- ▶ Yangi Yevropaning ta'lim modelining tarkibida:
- ▶ Fransiya Respublikasining ta'lim modeli;
- ▶ Germaniya Federativ Respublikasining ta'lim modeli;
- ▶ Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo'shma qirolligining ta'lim modeli mujassamlashgan.

Ular birlashtiruvchi asos, bu mamlakatlarning tashqi ishlar vazirligi tomonidan Boloniya imzolangan deklaratsiya hisoblanadi. Boloniya deklaratsiyasida ko'rsatishicha, birinchi siklni tugashi natijasi bo'yicha talaba-mutaxassisga taqdim etiladigan darajaga yevropaning mehnat bozorida aniq kvalifikatsiya sifatida talab bo'lishi shart.

- ▶ Osiyo ta'lim modelining tarkibida:
- ▶ Yaponiyaning ta'lim modeli;
- ▶ Xitoy Xalq Respublikasining ta'lim modeli;
- ▶ Hindiston Respublikasining ta'lim modeli;
- ▶ Tibet avtonom hududining ta'lim modellari mujassamlashgan.

Osiyo ta'lim modelining tarkibiga kiruvchi modellarni birlashtiruvchi mintaq mehnat bozorida asosan ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan ixtisosliklarga mavjud talablarning asosida joriy modelni takomillashtirishdan iborat.

V.Jarov va Y.Taratuxinalar sintetik ta'lim modellari mavjudligini ko'rsatib, Rossiya Federatsiyasining ta'lim modelining bunga misol sifatida ko'rsatib o'tgan. Bizningcha, sintetik ta'lim modeli deganda, an'anaviy pedagogik tamoyillarni saqlab qolgan holda, rivojlangan mamlakatlarda amal qilib kelayotgan, tarixiy davr mobaynida sinalgan - ma'lum natijalarga erishish uchun xizmat qilgan modellarni ayrim tarkiblarini (ta'lim sifati, ta'lim maqsadi, ta'lim vazifasi, ta'limning strukturasi va b.) qabul qilish natijasida vujudga kelgan ta'lim modelini tushunish lozim.

Ta'lim modellari qatorida AQShning ta'lim modeli natijaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Unda asosiy e'tibor, jahon mehnat bozorida talab bo'lgan ixtisosliklarni tayyorlashga qaratiladi. Mehnat bozorining talablaridan kelib chiqqan holda yangi ixtisosliklar joriy etiladi va milliy manfaatlarni himoya qilish tarzida ta'lim jarayoni boshqariladi.

Ta'lim jarayonining boshqarish o'ziga xos strukturaga ega bo'lib, har bir mamlakat o'z manfaatlardan kelib chiqqan holda boshqaruvni amalga oshirish maqsadi shakllantiriladi. Funksional tahlil asosida ta'lim jarayonini boshqarishning quyidagi yo'nalishlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

rivojlanish strategiyasini belgilash jarayonini boshqarish (rivojlantirishning maqsadini belgilash, uning rejasini tayyorlash, kerakli shart-sharoitlarni yaratish, innovatsiyaviy faoliyat yuritishni ta'minlash va b.);

ta'lim tizimini tashkil etishni boshqarish (ta'lim tizimini boshqarish meyorlarini, tamoyillarini, tartibga keltirish jarayonini va boshqaruv texnologiyasini shakllantirish);

pedagog kadrlar (personalni) va ijtimoiy jarayonning rivojlanishini boshqarish (aniq kadrlar siyosati asosida pedagog kadrlarni tanlash, uni baholash va attestatsiyadan o'tkazish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ta'lim muassasasining jamoasini shakllantirish, ta'lim subyektlarini motivatsiyasi va ehtiyojlarini belgilab, ularni qondirishni kafolatlash);

ta'lim tizimining iqtisodiy rivojlanish jarayonini boshqarish (iqtisodiy normalar, iqtisodiy samaradorlik mezonlari va samaradorlik ko'rsatkichini belgilash va takomillashtirish);

moliya va buxgalteriya hisobini boshqarish (budjetni belgilash, moddalar bo'yicha smetalarni, buxgalteriya balansini kiritish, ta'lim sohasida xizmat ko'rsatish, soliqqa tortish, ta'limga investitsiya kiritish kabilarni belgilash);

ilmiy faoliyat jarayonini boshqarish (ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirish talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish, ilmiy izlanishlarning "buyurtmalar portfeli"ni shakllantirish, tadqiqot ishlarini (professor-o'qituvchilar hamda talabalarning ilmiy faoliyati) bajarish);

o'quv jarayonini boshqarish (yo'nalish va ixtisosliklarning nomenklaturasini, muassasaning faoliyatini baholash jarayonini tashkil etish, majmuaviy o'rganish normalari va mezonlarini, milliy ta'lim standartlarini ishlab chiqish va ularni tadbiq etish uchun yo'riqnoma va uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqish, ta'lim standartlarini aniq ixtisosliklar bo'yicha tadbiq etish, ta'lim oluvchilar kontingentini shakllantirish va ularning faoliyatini, o'quv jarayonini tashkil etish (-o'quv xonalari, mustaqil ish, oraliq va yakuniy nazorat hamda yakuniy davlat attestatsiyasi));

uslubiy faoliyatni boshqarish (ta'lim muassasalari va dasturlarni litsenziyalash va akkreditatsiyadan o'tkazish tizimini, ta'lim berish usul va texnologiyalarini, O'UM faoliyatini belgilash);

ta'lim sifatini boshqarish (sifatni baholash tizimini ishlab chiqish hamda ichki nazoratni joriy etish);

mehnat va ish haqini taqsimlash jarayonini boshqarish (ta'limda ta'rif tizimini shakllantirish, professor-o'qituvchilar uchun o'quv, uslubiy, ilmiy, tashkiliy va ma'naviy-ma'rifiy normativlarni ishlab chiqish, pedagoglar mehnatini tashkil etish);

moddiy-texnik resurslarni boshqarish (resurlardan foydalanish tartibi, resurslarni yetakzib berish va ularni iste'mol qilish);

ta'lim marketingini boshqarish (ta'lim xizmatlari haqida tasavvurni shakllantirish, ta'limda marketing tadqiqotlarini o'tkazish, marketing kommunikatsiyasini, ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning talab va ehtiyojlarini inobatga olish);

ta'lim sohasidagi axborot va ta'limning kompyuterlashtirish jarayonini boshqarish (texnik va dasturiy ta'minot, axborot bazasini shakllantirish va resurs markazlarining ma'lumotlar bazasini takomillashuviga yordam berish, ta'lim jarayoniga texnik yordam ko'rsatish);

ta'minot xo'jaligini boshqarish (infrastrukturalarni (ovqatlanish tarmoqlari, talabalar turar joyi, sport majmualari, dam olish va davolanish maskanlari) belgilash va ularni amal qilishining samaradorligini ta'minlash));

xalqaro aloqalarni boshqarish (hamkorlarni belgilash, hamkorlik turlari va ularni joriy etish);

nashr faoliyatini boshqarish (moddiy-texnik ta'minot (bosma va nusxa ko'chiruvchi uskunalar)), nashrlik faoliyatini tashkil etish;

ma'naviy tarbiya faoliyatini boshqarish (faoliyat turi va usullarini, madaniy tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish, sport o'yinlari, mehnat faoliyati, mustaqil ta'lim olish va o'zini boshqarish);

oliy ta'limgacha ta'lim jarayonini boshqarish (kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish metodi va shaklini belgilash, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari bilan profrentatsiya ishlarini o'tkazishda aniq usullardan foydalanish tartibini ko'rsatish);

fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni boshqarish (hamkorlik turlarini, axborot ayirboshlash (hisobot topshirish shakli va turi)ni tartibini ko'rsatish)).

Ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha ta'lim tizimini boshqarish jarayonida ta'lim paradigmalarining o'zgarib borishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ta'lim paradigmasi, bu ta'lim berish mazmuni va shakli, ta'lim texnologiyalariga mansub bo'lgan ta'lim metodining boshlang'ich didaktik yoki psixologik asosi emas. Avvalgi ta'lim paradigmasi, ta'lim jarayoni va ta'lim jarayonining natijasiga an'anaviy yondashuv asosida shakllangan - texnogen madaniyatning natijasi hisoblanadi. Butushuncha, ta'lim tizimini maishiy va ijtimoiy tajribadan, ishlab chiqarishdan, takomillashib borayotgan madaniyatdan ayri holda, mahdudlangan tarzda amal qilishini ifoda etadi. Ta'lim, ijtimoiy institut sifatida o'qitish, vorislik asosida bilimni avloddan avlodga yetkazish, ijtimoiylashtirish, ijtimoiy meyorlarni anglash va ularga amal qilishni o'rgatish, turli iqtisodiy sohalar uchun mutaxassislarni tayyorlash, ularni shaxsiy va kasbiy kamolotini ta'minlash, innovatsiyaviy faoliyatga (innovatsion iqtisodni mo'ljalga olish, ya'ni ixtisosliklarni vujudga kelishiga-ularni egallashga) tayyorlash kabi vazifalarni bajarishini inobatga olsak, avvalgi ta'lim paradigmasi jamiyat tomonidan ta'limning oldiga qo'yilayotgan bugungi talablarga javob bera olmaydi.

Bugungi kunda butun dunyo bo'yicha ta'lim alohida imtiyoz(huquq)larga ega bo'lganlar uchun emas, balki barchaga barobar ekanligini, fan-texnikaning rivojlanishi hamda xizmat ko'rsatish turlarini takomilashuvi natijasida yangi ixtisosliklarni vujudga kelayotganligi, buyurtmachining mehnat bozoriga nisbatan talablarini oshib borilayotganligi, kompyuter texnologiyalarining mehnat jarayoniga tadbiiq etilishi hisobidan yangi -innovatsiyaviy ta'lim paradigmasi yaratilganligidan dalolat beradi. Bu o'z navbatida kishilarning tafakkuri, tasavvuri va qadriyatlarining takomillashib borayotganligini (o'zgarib borayotganligini) ko'rsatadi.

Innovatsiyaviy ta'lim paradigmasi ta'lim oluvchining pog'ona-pog'onali tarzda, pastki pog'onadan yuqori pog'onaga ravon o'tishni ta'minlash bilan tavsiflanadi. Natijada, ta'lim oluvchining shaxsi, jamiyatda kechayotgan iqtisodiy-madaniy, ilmiy-texnik va texnologik o'zgarishlarga tayyor turib, o'z kasbiga ijodiy yondasha olishi, konstruktiv tafakkur yurita olishi hamda turli kishilar bilan hamkorlik qila olish qobiliyati tufayli samarali mehnat qilishga tayyor turadi. Bundan shaxs, jamiyat va davlat ham manfaatdor bo'lib, ta'limni boshqarish masalasiga funksional yondashib, quyidagilarga e'tibor qaratishni taqozo etadi:

o'quv dasturlarini tuzishda rivojlangan mamlakatlarning ta'lim jarayonining tajribasidan, milliy ta'lim-tarbiyaning maqsadlariga mos tushadigan – milliy qadriyat va an'nalarga putur yetkazmaydigan jihatlarni kiritishni;

ta'lim, mutaxassis shaxsini kamolotini ta'minlash uchun xizmat qilishini inobatga olib, ijtimoiy-gummanitar fanlar bo'yicha dasturni har bir ixtisoslikning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tuzish maqsadga muvofiq. Masalan, texnik yo'nalishdagi ixtisosliklar uchun "Texnika falsafasi", "Matematik mantiq", "Texnika psixologiyasi" kabilarini o'qitishni joriy etish;

ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etishda har bir predmetning xususiy kategoriyalari, tadqiqot predmeti xususiyatlarini mavjudligini inobatga olib, o'tilayotgan mavzuning xarakteridan kelib chiqqan holda qo'llash metodologiyasini ishlab chiqish;

ta'lim muassasasining axborot bazasini ilmiy axborot bilan ta'minlab, turli ruxsat etilmagan axborot xurujlaridan saqlash maqsadida ilmiy axborotni saralashning elektron dasturini tuzish lozim.

Adabiyotlar:

1. Birinchi prezident Islom Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy etish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochish marosimidagi nutqi // Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy etish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. 11-bet.

2. Samarov R. Xavfsizlikning metodologik asoslari. – Toshkent: Akademiya, 2010. - 172 b.

Barkamollik tizimida kasbiy layoqatlilik // J. Ta’lim muammolari jurnali. 2013, 6-son. 10-bet.

3. Jarov V.K., Taratuxina Y.V. Pedagogicheskiy konstruktivizm v kross-kulturnoy srede. - M.: Yanus-K. 2015. - S. 61.

4. Liforov A.P. Kulturologicheskaya sostavlyayushaya internatsionalizatsii mirovogo obrazovaniya. – Ryazan: Ryazanskiy Gosudarstvenniy pedagogicheskiy universitet. – 2006. – 245 s.

РЕЗЮМЕ

Ta’lim sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish natijasida o‘quvchilar ma’lum bilim va ko‘nikmalardan samarali foydalanishlari bilan shakllanadi. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning kasbiy vakolatlari darajasini oshiradi.

РЕЗЮМЕ

В результате применения современных информационных- коммуникационных технологий в сфере образования у студентов формируются по эффективному их использованию определенные знания и навыки. Это в свою очередь поднимает уровень профессиональной компетентности педагогов.

SUMMARY:

As a result of application of modern information and communication technologies in education of students formed on the effective use of their specific knowledge and skills. This in turn raises the level of professional competence of teachers.

УМУМТАЪЛИМ МАКТАБИДА АРТПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚУЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Қуттибекова Г.Т.

Жиззах ДПИИ тадқиқотчиси

Таянч сўзлар: артпедагогика, арттерапия, коррекцион педагогика, бадий воситалар, бадий-ижодий фаолият, психологик-ижтимоий мослашув.

Ключевые слова: артпедагогика, арттерапия, коррекционная педагогика, художественные средства, творческо-художественная деятельность, психолого-социальная адаптация.

Key words: artpedagogy, art therapy, correctional pedagogy, artistic means, creative art activities, psychological social adaptation.

Артпедагогика - педагогикада алоҳида йўналиш бўлиб, у бола шахсини турли санъат фанлари воситасида ўқитиш, ривожлантириш ва тарбиялаш жараёнида амалга оширилади. Ўшбу фан анъанавий таълим тизимининг услубларидан четга чиқиб, ўқитувчи, ўқувчи ва ота-оналарнинг бевосита ўзаро ижодий ҳамкорлиги асосида амалга оширилади. Дастлаб арттерапия ва артпедагогика коррекцион педагогикага мос равишда ривожланган бўлишига қарама ҳар иккала йўналишда ҳам икtidорли, ҳам девиант тоифадаги ўқувчилар билан ишлашда қўлланилиши мумкин. Артпедагогика урганишдан уз-узини урганишга, тарбиялашдан уз-узини тарбиялашга, ривожланишдан уз-узини ривожлантиришга интилишни шакллантиради.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбасев атындағы
Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 4-1**

Нөкис — 2020

Басып шығыўға жуўапкер:

А. Тилегенов

Баспаға таярлаған:

А. Тилегенов, Н. Абдукаримов

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 10.08.2020. Форматы 60x84¹/₁₆

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. Нашр. т. Нұсқасы 2000. Буйырпа №

«NISO POLIGRAF» ШК босмахонасида босилди.

Тошкент ш., Ҳ. Бойкаро, 51